

“BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIS TILINI O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING O'RNI VA TIL VOSITASIDA RAQOBATBARDOSH AVLODNI TARBIYALASH”

Namangan viloyati Pop tumani

26-maktabning inglis tili o'qituvchisi

Butaboyeva Saodat Abduvahobovnaning

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, xorijiy til vositasi orqali raqobatdosh avlodni tarbiyalash, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich, o'yin, ta'limiy, ta'lim.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilgan “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-1815-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini asosan, ingliz tilini o'zgarish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligidagi ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfdagi o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali

vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi.

Shubhasiz, mamlakatimiz ta'lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning ilg'or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitrl yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishishi imkonini berdi.

Tillararo nazariyaga muvofiq ingliz tili o'rganish jarayoniga ta'sir etuvchi barcha omillar hisobga olinishi lozim. Bu omillar ingliz tili o'rganuvchining yoshga oid (psixologik va bilish faolligi) xususiyatlari, ta'lim mazmuni va maqsadi hamda ularga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim vositalaridan iboratdir. Mazkur nazariyaga muvofiq ingliz tili o'rganish jarayonida o'quvchi til tajribasiga tayanib ingliz tilidagi kommunikatsiyaning yangi lisoniy tizimi «aralash/tillararo kod»ni shakllantiradi. Ya'ni ona tili tajribasi ikkinchi tilni o'rganishda, so'ngra ularning ikkovi ingliz tilini egallashda (tillararo transpozitsiya va interferensiya) ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, darslik va dasturlartuzishda tillararo interferensiya va o'quvchining til tajribasi hisobga olinadi, ta'lim berishga mo'ljallangan qoidalar (oddiy nazariy bilimlar) amaliy ko'nikma va malakalarning egallanishini tezlatish va soddalashtirish maqsadlariga bo'ysundiriladi. Ya'ni ayrim zaruriy qoidalar yoki nazariyalarning elementlari ingliz tili o'rganish jarayonini tezlashtirish va osonlashtirish maqsadida bayon etiladi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning pedagogik tamoyillari o'zbek va rus tilidagi ilmiy manbalarda dadidaktik tamoyil sifatida mufassal bayon etilgan. Lekin xorijiy adabiyotlarda pedagogik tamoyil alohida tadqiq etiladi. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda uch tildagi ilmiy manbalardan foydalandik.

1. O‘sib kelayotgan avlodni har tomonlama kamolotga etkazish. Ingliz tili vositasida o‘zlashtiriladigan axborot va ingliz tili o‘rganish mobaynida olinadigan aqliy va nutqiy ko‘nikma hamda malakalar o‘quvchilarni tarbiyalaydi.

2. O‘quvchilarni o‘rganilayotgan tildan foydalanishga rag‘batlantirish.

3. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini e‘tiborga olish.

4. O‘quvchilarni atrofdagilarga nisbatan bag‘rikenglik va turli qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

5. Darslarda bilimlarning mustaqil fahmlab o‘rganilishi uchun optimal vaziyat yaratish.

6. O‘quvchilarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini mustaqil va o‘zaro aniqlab borish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish.

7. O‘quvchilarga o‘z bilimlarini o‘rganilayotgan tilda namoyon qilish imkoniyatini yaratish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan chet tillari bolalarning kelajagi va ularning miya faoliyatini yaxshi tashkil qilish uchun foydali hisobalandi. Dasturlarning o‘qish va nutq o‘stirish bo‘limida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar mazmuniga; o‘quvchilarni to‘g‘ri, ravon, ma‘lum darajadagi tezlik bilan ifodali o‘qishga o‘rgatish; bolaning ona — Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqloq g‘oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. O‘qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog‘lab o‘tishi uning ta’sirchanligi ongli idrok etishlarini ta’minlaydi. O‘qish va nutq o‘stirishning ta’limiy — tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo‘yicha o‘qish mazmunini o‘qish ko‘nikmalarining og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o‘qish mashg‘ulotlarining yozma nutq bilan bog‘lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari yuqori sinflardagi o‘zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o‘zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflardagi o‘qish darslariga jiddiy e‘tibor talab qilinadi. O‘qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o‘qituvchi asosan quyidagilarga e‘tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo‘ljallangan saboqni sabr toqat bilan

tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qoyil harakatda, xayoli o'yinda bo'ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglayolmaydilat. Shu tugayli bu sinflarda ta'lim-tarbiya vazifalari, asosan o'yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o'qish orqali amalga oshiriladi.

Ingliz tili darslari yosh o'quvchilarni o'qish va yozish dunyosi bilan tanishtiradi. Turli matnlarni o'qish va yozma topshiriqlar orqali o'quvchilar so'z boyligini kengaytiradi, tushunish qobiliyatini oshiradi, yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat akademik muvaffaqiyat uchun, balki umrbod ta'lim uchun ham juda muhimdir. Ingliz tilini o'rganish matnlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarishni o'z ichiga oladi. Ushbu kognitiv jarayonlar bolalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ular savol berishni, baholashni va o'z fikrlarini shakllantirishni o'rganadilar, bu ularning akademik va shaxsiy rivojlanishida qimmatlidir. Ingliz tili darslari ko'pincha ijodiy yozish mashqlari va adabiy izlanishlarni o'z ichiga oladi. Yoshlikdan ijodkorlikni rag'batlantirish bolalarga o'z tasavvurlarini, g'oyalarini erkin ifodalash imkonini beradi [6]. Bu ularga o'zlarining betakror ovozlarni kashf etishga, adabiyot va hikoya qilishga bir umrlik muhabbatni rivojlantirishga yordam beradi.

Farzandlar o'z ta'limini rivojlantirar ekan, ingliz tilini bilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu oliy ta'lim imkoniyatlari va kelajakdagi martaba istiqbollari uchun eshiklarni ochadi. Bugungi globallashtirilgan dunyoda ko'p tilli bo'lish qimmatli boylikdir [8]. Ingliz tili ko'pincha xalqaro muloqot tili hisoblanadi va ingliz tilini bilish o'quvchilarga turli madaniyatlar va kelib chiqishi bo'lgan odamlar bilan aloqa o'rnatish imkonini beradi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Bolalar ingliz tilini o'zlashtirgani sayin o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qiladi. Ular sinf muhokamalarida, taqdimotlarda va boshqa tadbirlarda qatnashishga ko'proq tayyor bo'ladilar. O'z-o'zini hurmat qilishning bu ortishi ularning umumiy akademik ko'rsatkichlari va shaxsiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tili darslari ularning ta'lim yo'llarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ingliz tilini o'rganish bo'yicha mustahkam poydevor yaratish orqali ushbu darslar yosh o'quvchilarni porloq kelajakka tayyorlaydi. Imtiyozlar sinfdan tashqarida ham o'ziga ishongan, so'zli va tanqidiy fikrlaydigan zamonaviy dunyo

qiyinchiliklariga dosh berishga tayyor shaxslarni shakllantiradi. Boshlang'ich maktab yillarida ingliz tilidagi ta'limga sarmoya kiritish bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga sarmoya bo'lishi aniq.

O'zbekistonda ingliz tili ta'limi ikkinchi tildagi axborot sohibini (kognizant) shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosning o'rganilishi ingliz tili ta'limining bosh maqsadidir [9]. Ikkinchi tildagi axborot sohibi deganda, autentik muloqot vaziyatlarida o'zga madaniyat vakili bilan chet tilda adekvat muloqot qilish kompetentligiga ega shaxsni tushunish mumkin. Tilni o'rganish chog'ida o'quvchi lingvistik bilimlar to'plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyalari)ni oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Ingliz tili kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'rgatiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'gan qiziqish, ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muammoning amaliy yechimini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: Методическое пособие. – М.: Айрисс-пресс, 2004. – 240 с.
2. Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – 258 p.
3. Pinter A. Children learning second languages. Research and practice in Applied Linguistics. – UK.: Palgrave & Macmillan, 2011. – 308 p.
4. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. – Xalq ta'limi. – № 4. – 2013. – B. 4-32.
5. Общеευропейские компетенции владения иностранным языком: Изучение, обучение, оценка. – М.: МГЛПУ. Сарма, 2005. – 248 с.

6. Гальскова Н.Д. Современная цель обучения иностранным языкам: от комплексного подхода к интеграции. // Сборник статей международной научнопрактической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: Просвещение, 2013. – С.25-34.